

This is not registered version of TotalDoc Converter

Darslar ishtirokchisi. Ana xobs, yomg'ir so'zini tayyorladi. Aksiga olib bugun bir ko'rgazma tashkilotchilari bilan suhbat uyushtirmoqchi edim.

Shunday yomg'irda borish shartmikan-a? Yo bugun bormay qo'yaversammikin? Yo'q, ertangi darsga biror nima tayyorlashim kerak! Fikrlaringa qarshi chiqqanday yomg'ir ham savalab quyardi. Soyabonimni ochdim-u bekatga yugurdim. Biroz kutdim Kutish asnosida bekatning ortida yomg'irda ivib turgan yigitga ko'zim tushdi. Soyaboni ham yo'q ekan, bekat ichkarisiga kirsam bo'lasmikin? Anchadan beri turibdi-yov, qalin qop-qora sochlari suvga bo'kkan. Nigohi esa bir nuqtadan uzilmaydi - baland oppoq devor Devor tarfda bir nima bormi, deb rosa tikildim - devor begard. Notanish yigit zerikdimi yoki charchadimi, oxiri bekat o'rindig'iga - shundoq yonimga cho'kdi. Shu payt avtobusim ham keldi. Chiqishim kerak. O'rnimdan turdim. Notanish yigit xo'rsindi To'xtadim. Avtobus ketdi. Men joyimga qaytib o'tirdim. Shu damda menga ko'rgazmadan ham ko'proq "notanish" qiziq edi. Balki u ham bir dardkashga muhtojdir

- Biror muammoga duch kelgan ko'rinasiz?

U "Menga gapirayapsizmi", deganday qaradi. Biroz o'tib jilmaydi:

- Nima, siz muammoga duch kelmayapsizmi?

- Bo'lib turadi. Lekin uni yengish kerak. Siz esa o'zingizni

- Xarob qilyapmanmi?

- O'zingiz ham bilarkansiz-ku buni. Nega bunday bo'ldi, deb o'ylanavermay muammoni hal etish yo'llarini izlash kerakdir balki

- Yo'q, nega bunday bo'ldi, deb o'ylayman men. Chunki shunday bo'lishi kerak edi. Uni hal etish yo'li ham yo'q. U endi yonimga qaytmaydi

- Ha sevgi muommosi deng?

- Sevgi... Ehtimol, sevgi bu tuyg'u oldida ojizdir.

- Muhabbatningiz shunchalik kuchli ekan, nega uni yo'qotdingiz?

- Kim biladi? Bu faqat Allohga ma'lum. O'zi shunday - go'zal xilqat bevafo bo'ladi.

- Demak, sevganingizga vafo yetishmabdi-da?

- Ha u meni jilmayibgina tashlab ketdi. Usiz yasholmasligimni bilardi Javohiridan kechib ketdi-ya!

Notanishning ham ko'zlaridan tomchilar yog'a boshladi, xuddi bugungi yomg'irday Yigit kishi yig'laganini ko'rmaganman. Nima deyarimni, nima qilarimni bilmay qoldim. "Bir qizga ham shunchalikmi?" deb o'yladim.

- Aytgancha, nega mana bu devorga tikilib turgandingiz?

- Chunki devor ortida uning uyi bor.

- Chiqishini poyladingizmi?

- Yo'q U chiqmaydi. Yomg'irni yaxshi ko'radi, shuning uchun yoniga keldim. Ammo devor ortiga o'tish

- Ha, kimdir ko'rsa durust bo'lmaydi. Birovning uyiga beruxsat kirish

- Menga ruxsat shartmas. Endi kerakmas Avval ikkimiz kimlarningdir ruxsati-yu buyruqlari ostida yashadik. Oxiri nima bo'ldi?!

Hatto biror marta qo'lidan ham tutolmadim

- U hozir turmushga chiqqanmi?

- Turmushga chiqsayam roziydim. Axir bir kun qolgandi to'yiga. Ammo u istamadi! Menga xiyonat qilolmadi

- Unday bo'lsa Nima muammo?

Notanish o'rnidan turdi.

- Men undan xabar olib kelay

- Mayli Unga salom ayting.

Notanish yigit ketdi. Devor yoqalab ketdi Eshigi qaerdaykin, bilmadim. Men ham ketdim. Ko'rgazmaga emas, uyimga. "Biror nima"B ham yozdim:B "Devor ortida". Menga hanuz jumboq edi, ne bor edi devor ortida? Notanishni yigitni esa qayta

uchratmadim. Balki yomg'ir yana yoqqanida ko'rarman uni. Javobsiz savollarimga javob berar u.

Yomg'ir esa boshqa yog'madi Oradan bir oy o'tdi. Havo issiq, o'sha bekatdaman. Devor oqlanayapti. Hasharchilardan so'radim:

- Devor ortida kim yashaydi?

- Hech kim yashamaydi. Bu yer bezabonlar makoni. Qabrison

- Qabrison

Men bekatga qaytdim. O'rindiqqa og'ir cho'kdim. Yonimda bir onaxon devorga tomonga qarab o'qtin-o'qtin xo'rsinadi: "Eh, bolama nimalar qilib qo'yding? To'yingni ko'rolmagan onang o'lsa bo'lasmidi? Oh, Javohirim!"